Hozirgi kunda dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy va geoiqtisodiy tebranishlar hamda yirik kuch markazlari o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvining kuchayib borishi sharoitida aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning roli tobora ortib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida tadbirkorlikning muhim shakllaridan biri hisoblangan oilaviy biznesni rivojlantirish orqali sezilarli iqtisodiy natijalarga erishilgan. Ushbu mamlakatlar tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar nafaqat bandlikni ta'minlash, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, hududlar iqtisodiyotini rivojlantirish, raqobatbardosh mahsulot va xizmatlar hajmini oshirish hamda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subyektlarining aksariyat qismini oilaviy korxonalar, oilaviy biznes yoki oilaviy tadbirkorlik shaklidagi xo'jalik subyektlari tashkil etadi. Buning asosiy sababi shundaki, oilaviy tadbirkorlikni tashkil etishning ijtimoiy va iqtisodiy ustunliklari yuqori samaradorlikni ta'minlash bilan birga uning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bir tomondan, oilaviy tadbirkorlik subyektlari faoliyatining yuqori samaradorligi ta'minlansa, ikkinchi tomondan, bunday faoliyatning uzoq muddat davom etish imkoniyati uning barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.



Tahlillarga ko'ra, ko'plab Yevropa mamlakatlarida oilaviy biznes yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibining 40–50 foizini tashkil etadi. Osiyo mamlakatlarining ayrimlarida ushbu ko'rsatkich 60–80 foizgacha yetadi, Lotin Amerikasi davlatlarida esa 70 foizga yaqin ulushni tashkil qiladi. AQSh iqtisodiyotida ham oilaviy biznes ulushi 60 foizdan ortiqni tashkil etadi.

Iqtisodiyoti rivojlangan ko'plab mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish, uni samarali boshqarish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalarini o'rganish bilan shug'ullanuvchi maxsus birlashmalar, institutlar hamda davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyat yuritadi. Bunday institutsional infratuzilmaning rivojlanganligi aholini tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish, oilaviy biznes an'analarini rivojlantirish hamda kelgusida o'rta va yirik biznes subyektlarining shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois so'nggi yillarda mamlakatimizda ham oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida xorijiy tajribani o'rganish, tahlil qilish va uni milliy sharoitga mos ravishda amaliyotga joriy etish dolzarb masalalardan biri bo'lib bormoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oilaviy biznes, oilaviy tadbirkorlik yoki oilaviy korxonalar faoliyatiga oid turli yo'nalishdagi tadqiqotlar turli soha vakillari, xususan, sotsiologlar, demograflar, psixologlar, menejerlar, marketologlar hamda iqtisodchilar tomonidan o'zlarining ilmiy yo'nalishlari nuqtai nazaridan o'rganilib, turli metod va metodologiyalar asosida ilmiy farazlar, xulosalar hamda takliflar ilgari surilmoqda.

Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar asosan AQSh, Fransiya, Shvetsiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya va Xitoy kabi davlatlarda keng miqyosda olib borilgan. Xususan, AQSh olimlaridan John L. Ward, Ivan Lansberg, Kelin E. Gersick, Joseph Astrachan, fransiyalik Manfred Kets de Vries, shvetsiyalik Mattias Nordqvist hamda italiyalik Alfredo De Massislarning ilmiy tadqiqotlarida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga oid turli nazariy yondashuvlar va tahlillar ilgari surilgan.

Mahalliy olimlardan B. Berkinov, U. G'afurov, N. Rasulov, G. Shodieva, M. Xalilov va Sh. Kuvandikovlarning ilmiy ishlarida oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy, iqtisodiy, moliyaviy hamda boshqaruvga oid muammolari ma'lum darajada o'rganilgan.

Biroq O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda aynan qaysi xorijiy tajribalar eng maqbul ekanligi masalasi yetarli darajada chuqur tadqiq etilmagan. Shu nuqtai nazardan, mazkur ilmiy maqolada ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasi misolida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha olimlarning qarashlari va yondashuvlarini umumlashtirish asosida O'zbekistonda ulardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi hamda ayrim amaliy takliflar ilgari suriladi. Mazkur yondashuvlar O'zbekistonda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bilan birga mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash hamda ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada tizimli tahlil, ilmiy abstraksiyalash, iqtisodiy-statistik kuzatish, statistik tanlanma, guruhlash, qiyoslash hamda boshqa ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Xususan, oilaviy tadbirkorlikka oid xorijiy nazariyalar, oilaviy biznesni tashkil etish va yuritishning ilmiy asoslari bo'yicha xorijiy hamda mamlakatimiz olimlarining mazkur yo'nalishdagi ilmiy ishlari guruhlash va qiyoslash usullari asosida o'rganilgan.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorijiy tajribasi hamda ulardan foydalanish imkoniyatlariga doir xulosa va takliflar iqtisodiy-statistik kuzatishlar hamda ilmiy abstraksiyalash usullari yordamida ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, xorijiy mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlikni tashkil etish va yuritishning o'ziga xos xususiyatlari umumlashtirish usuli asosida tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda 2017-yildan boshlab kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash hamda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar barcha tadbirkorlik shakllari qatori oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishiga ham sezilarli turtki berdi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda, jumladan G'arb davlatlarida ushbu jarayon O'zbekistonga nisbatan ancha oldin boshlangan.

XX asrning 70–80-yillaridan boshlab iqtisodiyot sohasida faoliyat yurituvchi tadqiqotchilar, ekspertlar, olimlar hamda mutaxassislar kichik tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarga jiddiy e'tibor qarata boshladilar. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq muammolarni o'rganishga qaratilgan ushbu izlanishlar tasodifiy yuzaga kelmaganligi bir qator olimlarning ilmiy tadqiqotlarida asoslab berilgan.

Mutaxassislar va tadqiqotchilar tomonidan kichik biznes faoliyati bilan bog'liq muammolarning chuqur o'rganilishiga sabab sifatida XX asrning 80-yillari boshlarida yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz sharoitida oilaviy

korxonalarining yirik korporatsiyalarga nisbatan moslashuvchanligi, moliyaviy qiyinchiliklardan tezroq hamda katta iqtisodiy talofatlarsiz chiqib ketish qobiliyati bilan ajralib turishi ko'rsatib o'tiladi. Shu bilan birga, oilaviy korxonalar iqtisodiy o'zgarishlarga tezroq moslasha oladigan tadbirkorlik shakli sifatida e'tirof etilgan.

Jahon amaliyotidagi mavjud tajribalar shuni ko'rsatadiki, oilaviy korxonalar nafaqat mahalliy bozorlarga, balki xalqaro bozor talablariga ham tez moslasha oladigan hamda bozorning o'zgaruvchan sharoitlariga moslashuvchan tadbirkorlik shakli sifatida shakllanib bormoqda.

Bugungi kunda kichik va o'rta biznes innovatsion g'oyalari tashabbuskori, yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim xo'jalik subyekti hamda iqtisodiy tebranishlarga moslashuvchan bo'lganligi sababli rivojlangan mamlakatlar amaliyotida iqtisodiyotning tayanchiga aylangan. Buni ayrim mamlakatlar bozorida faoliyat yuritayotgan firmalarning umumiy soniga nisbatan oilaviy korxonalarining ulushi ham tasdiqlaydi. Masalan, Rossiyada bozor iqtisodiyotining hozirgi tuzilishi 10–12 million oilaviy korxonalarining mavjud bo'lishini nazarda tutadi, biroq amalda ularning soni 300–400 ming atrofida ekanligi qayd etilgan [6].

G'arb mamlakatlarida har bir davlat o'zining urf-odatlarini, qadriyatlarini hamda qonunchilik tizimidan kelib chiqib oilaviy korxonalar faoliyatiga turlicha yondashuvlarni qo'llaydi. Xususan, Britaniya parlamenti 1971-yilda kichik firmalarni tadqiq etish qo'mitasi (Bolton qo'mitasi) ma'ruzasida oilaviy korxonaga ta'rif bergan. Ushbu ta'rifga ko'ra, kichik firma, birinchidan, o'z mahsuloti bozorning nisbatan kichik ulushiga ega bo'ladi; ikkinchidan, u mulkdorlar tomonidan boshqariladi; uchinchidan, mulkdorlar mustaqil menejerlar sifatida muhim qarorlarni qabul qilish jarayonida tashqi nazoratdan mustaqil bo'ladi.

Shuningdek, oilaviy korxonalar ta'rif berishda davlatning iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib funksional (personal) tasnif ham qo'llaniladi. Xususan, Xalqaro mehnat byurosining ta'rifiga ko'ra, kichik va o'rta korxonalar jumlasiga ishlov beruvchi sanoat hamda xizmatlar ko'rsatish sohasidagi firmalar, oilaviy korxonalar, kasanachilar mehnatidan foydalanuvchi korxonalar, kooperativlar hamda yakka tartibdagi korxonalar kiradi. Bunda korxonada band bo'lgan xodimlar soni eng keng tarqalgan tasnif mezonini hisoblanadi.

Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2006-yil 17-fevraldagi №265-r qarorida "Oilaviy ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" muhim vazifalar belgilab berilgan. Mazkur qaror oilaviy korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ayniqsa qishloq xo'jaligi sohasidagi oilaviy fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga qaratilgan. Hujjatda qishloq joylarda yangi ish o'rinlarini yaratish, oilaviy mehnat an'alarini rivojlantirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash hamda davlat yordamini (subsidiya, kredit va texnika) kengaytirish kabi maqsadlar nazarda tutilgan. Shuningdek, mazkur qarorda oilaviy korxonalarining ularning faoliyat yo'nalishlari hamda band bo'lganlar soniga qarab tasniflash mezonlari ham belgilab berilgan. Rossiyada oilaviy korxonalarining shakllanish jarayoni asosan 1994-yildan boshlab rivojlana boshlagan.

Ma'lumki, rivojlangan davlatlarning bozor iqtisodiyoti amaliyotida oilaviy tadbirkorlik eng keng tarqalgan iqtisodiy sektor hisoblanadi. Uning rivojlanishi mamlakat iqtisodiy o'sishiga, yalpi ichki mahsulot hajmining oshishiga, aholi bandligi hamda daromadlarining ko'payishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Turli mamlakatlarda oilaviy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi¹

№	Mamlakatlar	Oilaviy tadbirkorlikning YalMdagi ulushi, %	Boshqa tadbirkorlik shakllarining YalMdagi ulushi, %
1.	Rossiya	74	26
2.	Fransiya	80	20
3.	Finlandiya	95	5
4.	Buyuk Britaniya	50	50
5.	Shvetsiya	60	40

Ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda Rossiyada oilaviy tadbirkorlikning YalMdagi ulushi 74 foizni tashkil etadi. Ushbu ko'rsatkich Fransiyada 80 foizni, Finlyandiyada 95 foizni, Buyuk Britaniyada 50 foizni, Shvetsiyada esa 60 foizni tashkil etadi.

Mazkur holat nafaqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan, balki oilaviy korxonalarini rivojlantirishga qaratilgan institutsional infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi bilan ham izohlanadi. Chunki institutsional infratuzilma o'z mohiyatiga ko'ra bozor iqtisodiyotiga xos bo'lib, zamonaviy bozor infratuzilmasining ustuvor rivojlanishini talab qiladi.

Bunday infratuzilmaning mavjudligi ushbu sohada faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarini iqtisodiy inqirozlarning salbiy ta'siridan himoya qilishga, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni samarali realizatsiya qilishga hamda tadbirkorlarning faoliyati davomida yuzaga keladigan muammolarni hal etishga ko'maklashadi (2-jadval).

1 Manba: muallif ishlanmasi.

2-jadval. Xorijiy mamlakatlarda oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash choralari²

Mamlakat	Davlat siyosati	Soliq imtiyozlari	Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Ta'lim va kadrlar tayyorlash
Buyuk Britaniya	IFB tashkiloti orqali maslahat va qonunchilik yordami	Meros solig'i bo'yicha yengilliklar	Uzoq muddatli kreditlar	<i>Family Business Studies</i> kurslari
Fransiya	Ijtimoiy mas'uliyatga asoslangan davlat siyosati	Oilaviy firmalar uchun soliq chegirmalari	Innovatsiya grantlari va subsidiyalar	Oilaviy boshqaruv kurslari
Finlyandiya	<i>Innovaatio-ohjelma</i> dasturi	Kichik biznes uchun soliq krediti	<i>Business Finland</i> orqali grantlar	Universitetlarda maxsus fanlar
Shvetsiya	"Nordic Model" doirasida teng imkoniyatlar siyosati	YaMga bog'liq soliq chegirmalari	YeTT grantlari	Tadbirkorlik markazlari orqali o'quv dasturlari
Rossiya	"Moy biznes" markazlari orqali qo'llab-quvvatlash dasturlari	YaMB uchun imtiyozli stavkalar	Kichik biznes uchun subsidiyalar	Tadbirkorlik kurslari va onlayn ta'lim

Shu bois oilaviy tadbirkorlikning asosiy ustunliklari va xususiyatlari quyidagilardan iborat ekanligi ilmiy manbalarda olimlar tomonidan alohida e'tirof etilgan:

- Oilaviy korxonalarda boshqaruv qarorlarini tez va samarali qabul qilish imkoniyati. Yirik korxonalar bilan qiyoslaganda oilaviy biznesda boshqaruv qarorlarini qabul qilish tuzilmasi nisbatan soddalashtirilgan bo'lib, bu bozor kon'yunkturasidagi o'zgarishlarga tez moslashish imkonini beradi;
- Oilaviy biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning aksariyat qismi mahalliy bozorlarga yo'naltirilganligi. Oilaviy tadbirkorlik qadriyatlar, urf-odatlar hamda mahalliy bozorning boshqa xususiyatlarini chuqur o'rganish va ularga moslashish uchun qulay sharoit yaratadi;
- Mamlakatda bandlikni ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishda muhim rol o'ynashi. Ushbu masala O'zbekiston uchun ham dolzarb hisoblanadi. Chunki aholi sonining doimiy ortib borishi mehnat bozorida ortiqcha ishchi kuchi paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Oilaviy tadbirkorlik esa bo'sh ishchi kuchini jalb etish orqali iqtisodiyotda muhim barqarorlashtiruvchi omil vazifasini bajarishi mumkin;
- Oilaviy korxonalarining yirik ishlab chiqaruvchilarga nisbatan yordamchi funksiyalarni bajarish imkoniyatlarining yuqoriligi. Bu esa yirik korxonalar negizida ishlab chiqarish jarayonining ayrim bosqichlarini oilaviy korxonalariga topshirish orqali ishlab chiqarish jarayonini markazlashgan boshqaruv tizimidan qisman chiqarishga imkon beradi;
- Oilaviy biznes subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan biznes loyihalar uchun dastlab kichik hajmdagi investitsiyalar talab qilinishi. Bu holat ularning bankrotlik darajasini kamaytiradi. Shu bilan birga oilaviy korxonalarini tashkil etish muddati qisqa bo'lib, ular boshqa tadbirkorlik shakllariga nisbatan tez va kam xarajat bilan qayta jihozlanishi, yangi texnologiyalarni joriy etishi hamda ishlab chiqarishni avtomatlashtirishi bilan ajralib turadi;
- Oilaviy korxonalarda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lishi;
- Oilaviy korxonalarining innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarining yuqoriligi. Shu bois ko'pgina iqtisodchilar kichik biznesning fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishdagi muhim rolini alohida ta'kidlab keladilar.

Kichik tadbirkorlik subyektlari, xususan oilaviy korxonalar, turli soha va tarmoqlarda amalga oshirilayotgan biznes loyihalariga innovatsiyalar kiritish jarayonining jadallashishiga turtki beradi. Bu borada venchur firmalar alohida faollik ko'rsatib, innovatsion faoliyatda yetakchi o'rinni egallaydi. Ular fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini joriy etishda yuqori sur'atlarga erishib, yirik firmalar bilan samarali raqobatlashadi.

Kichik biznes egalari xususiy sektorda yoki ilmiy tadqiqot muassasalarida hamda oliy ta'lim muassasalarida yaratilgan ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etishda tavakkalchilikni o'z zimmasiga olishga ko'proq moyillik bildiradi. Bu esa oilaviy korxonalarining ilmiy tadqiqot natijalari, zamonaviy texnologiyalar hamda malakali kadrlardan samarali foydalanishiga imkon yaratadi. Natijada innovatsion jarayonlarni rivojlantirish hamda ishlab chiqarishni texnologik jihatdan yangilashga sezilarli hissa qo'shiladi.

Shu bois oilaviy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot assortimentini yangilash jarayonlari bozor omillari ta'sirida shakllanayotgan yangi tovarlar raqobati sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi. Oilaviy korxonalar odatda innovatsion faoliyatning dastlabki bosqichlarida faol ishtirok etib, yangi g'oyalarni amaliyotga

2 Manba: muallif ishlanmasi.



tatbiq etishda muhim rol o'ynaydi. Keyingi sanoatlashtirish bosqichlari esa ko'pincha yirik korxonalar tomonidan amalga oshiriladi. Fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari oilaviy korxonalariga katta kapital resurslarga ega bo'lmagan holda ham ilm-fanga asoslangan tarmoqlarga tez kirib borish imkonini yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlik korxonalarini qat'iy bozor raqobati sharoitida samarali faoliyat yuritadi. Shu sababli yangi tashkil etilayotgan yirik korxonalar sonining jadal o'sishi ko'pincha ularning ma'lum qismining bankrot bo'lishi bilan kuzatiladi. Aksincha, oilaviy korxonalar ko'pincha kapital yetishmasligi yoki samarasiz texnologiyalar tufayli emas, balki boshqaruv bilimlari va tajribasining yetarli emasligi sababli faoliyatini to'xtatadi.

Shu bois rivojlangan xorijiy mamlakatlarda xususiy biznes vakillariga menejment sohasida qisqa, sodda hamda amaliy yo'naltirilgan o'quv kurslari va treninglar tashkil etiladi.

Masalan, AQShda kichik biznes shaklidagi firmalar o'rtasida turli yo'nalishlarda muntazam so'rovlar o'tkazib boriladi. Bunday tadqiqotlarning asosiy maqsadi korxonalar faoliyatida yuzaga kelayotgan muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablarini aniqlash, ularni tahlil qilish hamda tadbirkorlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishdan iborat.

Mazkur jarayonlar quyidagi omillarda namoyon bo'ladi:

- ayrim holatlarda oilaviy korxonalar egalari yetarli darajadagi bilim va tajribaga ega bo'lmagani. Shu sababli Germaniya va Xitoy kabi mamlakatlarda tijorat, moliya, yetkazib berish, ishlab chiqarish hamda boshqaruv sohaslarida tajriba yetishmasligidan kelib chiqadigan muammolarni oldini olish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilgan;

- oilaviy korxonalar sotuv hajmining nisbatan kichikligi;
- raqobat muhitining kuchayib borishi;
- transaksiya xarajatlarining yuqoriligi.

Ko'pincha kichik korxonalar, jumladan oilaviy tadbirkorlik subyektlari, kapital yoki investitsiya yetishmasligi tufayli emas, balki boshqaruv jarayonidagi muammolar yoki ularga xizmat ko'rsatuvchi institutlardagi byurokratik to'siqlar sababli faoliyatini to'xtatadi. Ushbu holatni O'zbekistondagi ayrim misollar orqali ham ko'rish mumkin.

Olib borilgan tahlillarga ko'ra, mamlakatimizda oilaviy korxonalar faoliyatida quyidagi muammolar mavjud:

Birinchiidan, oilaviy korxonalar o'z tabiatiga ko'ra yirik biznes bilan qiyoslaganda bozorda raqobat kuchiga to'liq ega emas.

Ikkinchiidan, ular ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarining nisbatan kamligi sababli ko'plab hollarda ishlab chiqarish xarajatlari yuqoriligicha qolmoqda. Natijada ular import qilinayotgan, xususan Xitoydan kirib kelayotgan tovarlar bilan narx bo'yicha raqobatlashishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Uchinchiidan, oilaviy korxonalar tasarrufidagi texnik jihozlanganlik darajasi nisbatan past bo'lib, kadrlar malakasida ham ayrim muammolar mavjud. Bu esa o'rta va uzoq muddatli strategik rejalarni ishlab chiqishda qiyinchiliklar tug'diradi.

To'rtinchiidan, kichik biznes faoliyati hamda bozordagi holat to'g'risida tezkor axborot olish imkoniyatlari cheklangan. Shu bilan birga oilaviy korxonalar ko'pincha marketing tadqiqotlarini o'tkazish uchun zarur vositalarga ega emas. Bu esa ularning bozor sharoitida raqobatbardoshligini pasaytiradi.

Shu sababli kichik biznes, xususan oilaviy korxonalarini davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlashning mukammal tizimini yaratish ularni rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Beshinchiidan, oilaviy korxonalarda biznes rejalarni amalga oshirish uchun yetarli moliyaviy resurslar zarur. Imtiyozli kreditlash davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Amaliyotda tijorat banklari ko'pincha faoliyatini endigina boshlagan kichik korxonalariga kredit berishdan ko'ra yirik va nufuzli korxonalariga kredit ajratishni afzal ko'rmoqda. Shu sababli O'zbekiston qonunchiligida oilaviy tadbirkorlik subyektlarini imtiyozli kreditlash va sug'urtalash tizimini yanada takomillashtirish zarur.

Oltinchiidan, imtiyozli kredit siyosati bilan bir qatorda qonunchilikda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imtiyozli soliq tizimini joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, oilaviy tadbirkorlik subyektlari, investitsiya va lizing kompaniyalari, kredit hamda sug'urta tashkilotlari uchun soliq imtiyozlarini belgilash maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda institutsional infratuzilmani yanada rivojlantirish zarur. Chunki Xitoy tajribasi shuni ko'rsatadiki, oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda biznesga xizmat ko'rsatuvchi davlat va hududiy fondlar muhim rol o'ynaydi. Ularning faoliyatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- oilaviy tadbirkorlik sohasidagi maqsadli dasturlar, loyihalar va tadbirlarni amalga oshirish uchun moliyaviy resurslarni jalb qilish hamda ulardan samarali foydalanish orqali bozor munosabatlarini rivojlantirish;
- oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish, raqobatni kuchaytirish, tovar bozorini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan loyihalarni ishlab chiqish, ekspertizadan o'tkazish hamda tanlov asosida saralash;



- oilaviy tadbirkorlikka xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasini rivojlantirish;
- tadbirkorlik tuzilmalarining innovatsion faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mahsulotlarning yangi turlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarishni rag'batlantirish, yangi texnologiyalar va ixtirolarni joriy etishda ko'maklashish;
- raqobat muhitini rivojlantirish hamda oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish uchun mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishga ko'maklashish (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston uchun oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar³

Yo'nalish	Xorij tajribasi	O'zbekiston uchun taklif
Qonunchilik	Fransiya va Buyuk Britaniyada oilaviy biznes huquqiy maqomga ega	"Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunni qayta ko'rib chiqish
Soliq siyosati	Finlyandiya va Buyuk Britaniyada oilaviy firmalar uchun soliq krediti mavjud	Soliq to'lovlari bo'yicha 3 yilgacha imtiyozli davr joriy etish
Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	Fransiyada grantlar, Rossiyada "Moy biznes" markazlari faoliyat yuritadi	Innovatsion grantlar hamda imtiyozli kredit dasturlarini kengaytirish
Ta'lim tizimi	Finlyandiya va Buyuk Britaniyada oilaviy biznes bo'yicha maxsus fanlar mavjud	Universitetlarda "Oilaviy biznes menejmenti" fanini joriy etish
Raqamli infratuzilma	Shvetsiyada yagona elektron platforma mavjud	"eFamilyBusiness.uz" portali yaratish va xizmatlarni integratsiya qilish

Shu bilan birga, xorijiy tajribani o'rganish asosida davlat tomonidan oilaviy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash fondlari orqali imtiyozli kreditlar, foizsiz ssudalar hamda qisqa muddatli qarzlarni ajratish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, raqobat muhitini rivojlantirish va tovar bozorini kengaytirish maqsadida ushbu fondlar tomonidan garov beruvchi hamda kafil funksiyalarini bajarish tizimini takomillashtirish taklif etiladi.

Bunday xulosaga kelishimizga sabab oilaviy tadbirkorlik shakllari, faoliyat sohalari hamda tashkiliy tuzilmalarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ularning yirik ishlab chiqarish tuzilmalari bilan uzviy bog'liq holda faoliyat yuritishi eng samarali yo'llardan biri hisoblanadi. Yana bir muhim jihat shundaki, oilaviy korxonalar barqaror kooperatsiya tamoyillari asosida o'ziga turdosh bo'lgan korxonalar bilan o'zaro hamkorlik qiladi yoki bir hududda joylashgan turli korxonalar faoliyati uchun zarur infratuzilmaning shakllanishiga xizmat qiladi.

Bunday sharoitda oilaviy korxonalarni rivojlantirish yo'nalishlarini tanlash hamda ularning faoliyat sohasini asoslash ko'p jihatdan mavjud tashkiliy-ishlab chiqarish tuzilmasiga va, avvalo, yirik korxonalar bilan o'zaro hamkorlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Yirik va oilaviy tadbirkorlik o'rtasidagi bunday o'zaro bog'liqlik progressiv tashkiliy tuzilmalarning shakllanishini taqozo etadi.

Oilaviy korxonalarni yanada rivojlantirishdagi muhim omillardan biri xomashyo va energiya resurslari narxlarining o'zgarishi, inflyatsiya darajasi hamda valyuta kurslarining tebranishlari bilan bog'liq. Shu bilan birga mamlakatning ichki va tashqi iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlar sharoitida kichik oilaviy korxonalarning ixtisoslashuv ustunliklariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Umuman olganda, ishlab chiqarish kooperatsiyasi ko'lamini kengaytirish, qo'shma tadqiqotlar olib borish, moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish hamda innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy korxonalar turli yo'nalishlar bo'yicha sa'y-harakatlarni birlashtirgan holdagina iqtisodiyot tuzilmasida barqaror mavqega ega bo'lishi hamda yirik korxonalar bilan samarali hamkorlikni yo'lga qo'yishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mavzu yuzasidan xorijiy tajribalarni o'rganish natijalari asosida mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish hamda uni davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan qo'llab-quvvatlash bo'yicha bir qator muhim xulosa va takliflarni ilgari surish mumkin. Avvalo, oilaviy tadbirkorlik faoliyatining dastlabki bosqichlarida rivojlangan davlatlar tajribasidan kelib chiqib, ularni qo'llab-quvvatlovchi infratuzilma muassasalarini rivojlantirish zarur. Bunday infratuzilma tarkibiga kichik moliyalashtirish mexanizmlari, maxsus fondlar, konsalting va axborot markazlari hamda boshqa qo'llab-quvvatlovchi institutlar kiradi. Shuningdek, oilaviy tadbirkorlik subyektlari uchun davlat moliyasi, moddiy-texnika va axborot resurslari, fan-texnika ishlanmalari hamda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, oilaviy korxonalarni ro'yxatga olish, ularning faoliyatini litsenziyalash, mahsulotlarini sertifikatlash hamda davlat statistika va buxgalteriya hisobotlarini taqdim etish jarayonlarini soddalashtirilgan

3 Manba: muallif ishlanmasi.



elektron tizim orqali amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Oilaviy tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash, jumladan, xorijiy mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy hamda ishlab chiqarish aloqalarini rivojlantirishga ko'maklashish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, oilaviy korxonalar uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish, ularning huquqiy, moliyaviy hamda iqtisodiy savodxonligini oshirish maqsadida institutsional infratuzilmani yanada rivojlantirish zarur. Umuman olganda, oilaviy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, uning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish hamda barqaror rivojlanishini ta'minlash mamlakat iqtisodiy o'sishi va aholi bandligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Institute for Family Business (IFB, UK). Family Business Report. – London, 2024.
2. Paris Dauphine University. Les entreprises familiales en France. – Paris, 2023.
3. Tourunen K. Family Entrepreneurship in Finland. – Helsinki, 2021.
4. Organisation for Economic Co-operation and Development. OECD SME and Entrepreneurship Outlook. – Paris, 2024.
5. Berkinov B.B. Oilaviy tadbirkorlikning xorijiy tajribalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – №4, iyul–avgust, 2018.
6. G'afurov U.V. Oilaviy tadbirkorlik va uning tarkib topish tamoyillari // Iqtisodiyot va ta'lim. – Maxsus son, 2022. – B. 392–399.
7. Xalilov M.Sh. Ijtimoiy muammolarni hal etishda oilaviy tadbirkorlikning ahamiyati // Iqtisodiyot va ta'lim. – Maxsus son, 2022. – B. 420–428.
8. Shodieva G.M. Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani rivojlanishida oilaviy tadbirkorlikning rolini "mahallabay" yondashuvi orqali baholash usullari // Iqtisodiyot va ta'lim. – №5, 2022. – B. 370–375.
9. Rasulov N.M. O'zbekistonda oilaviy biznes muammolari va uni rivojlantirish istiqbollari // "Raqamli iqtisodiyot" ilmiy-elektron jurnali. – Toshkent, №8, 2024. – B. 724–737.
10. Rasulov N.M. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari // "O'zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari" fanlararo ilmiy-nazariy jurnal. – Toshkent, №2 (15), 2024. – B. 43–49.
11. Quvandikov Sh.O. Oilaviy tadbirkorlik: milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni, ahamiyati va rivojlanish omillari // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – №1, yanvar–fevral, 2014.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100